

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 336.225(575.1)

KUDIYAROV KISHIBAY RAMATULLAEVICH

**XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR MOLIYAVIY
BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ SOLISH USLUBIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 — Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan**

D I S S E R T A T S I Y A

**Ilmiy maslahatchi: Toshmatov Shuxrat Amonovich
i.f.d., professor**

Toshkent — 2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I BOB. XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNI OPTIMAL SOLIQQA TORTISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	15
1.1-§. Korxonalar faoliyatini optimal soliqqa tortish nazariyasi.....	15
1.2-§. Soliq solishning korxonalar rentabelligiga ta’sirini nazariy asoslari.....	33
1.3-§. Soliqqa tortishning korxonalar moliyaviy faoliyatiga ta’sirining ilmiy nazariyalari.....	43
I bob bo‘yicha xulosa.....	57
II BOB. XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING SOLIQLAR TARTIBGA SOLISHNING TAHLILI VA ULAR FAOLIYATIGA SOLIQLAR TA’SIRINI BAHOLASH.....	60
2.1-§. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy ko‘rsatkichiga soliqlar ta’sirining tahlili.....	60
2.2-§. Noaniqlik sharoitida soliqlarning xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligiga ta’sirini baholashga zamonaviy yondashuvlarning tahlili.....	73
2.3-§. Soliq solishning xo‘jalik yurituvchi subyektlar daromadliligiga ta’sirini baholash.....	87
II bob bo‘yicha xulosa.....	104
III BOB. XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR FAOLIYATINI SOLIQLAR VOSITASIDA TARTIBGA SOLISH.....	107
3.1-§. Soliq samarasining foydani optimallashtirishga ta’siri bo‘yicha xalqaro yondashuvlar.....	107
3.2-§. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning investitsion faoliyatini rag‘batlantirishda soliq omillarini baholash.....	122
3.3-§. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy qarorlariga soliq solishning ta’sirining tahlili.....	135
III bob bo‘yicha xulosa.....	154
IV BOB. XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA SOLIQ SOLISH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI.....	157
4.1-§. Moliyaviy barqarorlikka erishishda soliq rejalashtirishni takomillashtirish yo‘nalishlari.....	157

4.2-§.	Rentabellik va to'lov qobiliyati darajasiga soliq solishning ta'sirini optimallashtirish.....	169
4.3-§.	Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini soliqlar vositasida tartibga solishning yo'nalishlari.....	183
	IV bob bo'yicha xulosa.....	192
	XULOSA.....	195
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	205
	ILOVALAR.....	221

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda soliqqa tortish tizimini yanada takomillashtirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini soliqlar vositasida samarali tartibga solish va ularning moliyaviy barqarorligiga soliq solishni salbiy ta’sirini minimallashtirishga e’tibor qaratilmoqda. IHTT(OECD) hisobotida keltirilishicha “Frantsiyada xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun o‘rtacha soliq yuki 25 foizdan 32 foizgacha, Germaniyada 30 foizdan 33 foizgacha bo‘lib, har ikki mamlakatda ham soliqqa tortish darajasi xo‘jalik yurituvchi subyekt hajmi, foyda miqdori, soliq imtiyozlari mavjudligi hamda mahalliy soliqlarga qarab farqlanadi”¹. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy barqarorligini ta’minlashda korporativ soliq qarzli moliyalashtirish va ulushli moliyalashtirish o‘rtasidagi diskriminatsiyani kamaytirish hamda xususiy kapital darajasini oshirish maqsadida qarzlar bo‘yicha foizlar chegirmalariga cheklovlarni joriy qilishni, yangi ish o‘rinlari yaratilishi rag‘batlantiruvchi mol-mulk va yer soliqlari bo‘yicha soliq stavkalarini pasaytirishni taqozo etmoqda.

Jahonda global xalqaro moliya institutlari, ilmiy tadqiqot markazlari va rivojlangan mamlakatlarda xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini soliqqa tortishni optimallashtirish, ularning faoliyatiga soliqlar ta’sirini baholash borasidagi ilmiy izlanishlarga e’tibor qaratilmoqda. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar hulq-atvori va moliyaviy ko‘rsatkichlariga soliqlarning ta’sirini empirik baholash, soliq solishning xo‘jalik yurituvchi subyektlarning investitsion va innovatsion faoliyatiga hamda makroiqtisodiy ta’siri tahlili, moliyaviy sektorga tartibga soluvchi soliqlar sxemalarining joriy qilinishi, transmilliy xo‘jalik yurituvchi subyektlarning stavkalari har xil bo‘lgan turli mamlakatlar o‘rtasida foydalarni qayta taqsimlash

¹ OECD. *Corporate Tax Statistics 2024*. URL: <https://www.oecd.org/tax/tax-policy/corporate-tax-statistics-database.htm>;

PwC. *Germany – Corporate Taxes on Income*. URL: <https://taxsummaries.pwc.com/germany/corporate/taxes-on-corporate-income>;

Fransiya soliq xizmati rasmiy sayti – *impots.gouv.fr*. URL: <https://www.impots.gouv.fr>

bilan bog‘liq muammolar to‘liq ijobiy echimini topmaganligi sababli, mazkur yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim hisoblanadi.

O‘zbekistonda soliq sohasida olib borilayotgan islohotlarda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish, soliq ma’muriyatchiligi samaradorligini oshirish, soliq yukini kamaytirish, shu jumladan, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimi bo‘yicha soliqlarni to‘laydigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi soliq yuki darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish, soliq tizimini soddalashtirish, soliqlarni unifikatsiya qilish orqali ularning sonini va soliq hisobotlarini tubdan qisqartirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan. “Byudjet xarajatlari, aholi va tadbirkorlar oldidagi majburiyatlarimizni qisqartirmagan holda, biznesga soliq yukini kamaytirish bo‘yicha ishlarni davom ettiramiz”². Ushbu islohotlarning to‘laqonli amalga oshirilishida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga soliq solishni optimallashtirishda ularning faoliyatini soliqlar vositasida samarali tartibga solish masalalari dolzarb hisoblanadi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini soliqqa tortish uslubiyotini takomillashtirish, xususan, soliq solishdagi mavjud nomutanosibliklarni kamaytirish va biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirishda soliqlardan foydalanishdagi mavjud muammolar keng ko‘lamdagi ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Shu sababdan, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini soliqqa tortishni optimallashtirishda moliyaviy barqarorligini ta’minlashni soliqlar vositasida tartibga solish ustuvor vazifalardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”, 2017-yil 18-iyuldagi PF-5116-son “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi

²Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>.